

**MEDICINAL PROPERTIES OF ARTICHOKE
(CYNARA SCOLYMUS L.)**

Sherboyeva Nilufar Bahrom qizi

Mamatkulova Iroda Ergashevna

Saidov Zukhriddin Usmonali ugli

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

Abstract: In order to rationally use medicinal plants and prevent the depletion of natural resources, the areas where medicinal plants are cultivated in our republic are expanding. In this thesis, medicinal preparations prepared from representatives of the *Cynara scolymus* L family, advantages of using in vitro method and biofertilizers in increasing the efficiency of artichoke plantations are described.

Key words: *Cynara scolymus* L, Asteraceae, cynarin, synaropikrin.

**ARTISHOK (CYNARA SCOLYMUS L.) O‘SIMLIGINING
DORIVORLIK HUSUSIYATLARI**

Sherboyeva Nilufar Bahrom qizi

Mamatkulova Iroda Ergashevna

Saidov Zuxriddin Usmonali o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotasiya: Respublikamizda shifobaxsh o‘simlikdan oqilona foydalanish va tabiiy zahiralarning kamayib ketishining oldini olish maqsadida dorivor o‘simliklar yetishtiriladigan maydonlari tobora kengayib bormoqda.

Ushbu tezisda, *Cynara scolymus* L turkumi vakillaridan tayyorlanadigan dori preparatlari, artishok plantatsiyalarining samaradorligini oshirishda in vitro usuli hamda bioo'g'itlardan foydalanishning afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Cynara scolymus* L, Asteraceae, sinarin, sinaropikrin.

Hozirgi vaqtda farmasevtika sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50-60%i dorivor o'simliklardan tayyorlanmoqda. Chunki shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dori vositalari sintez qilib tayyorlanayotgan dori vositalaridan o'zining ko'pgina qulayliklari, shu jumladan ularning arzonligi, zararsizligi kabi xususiyatlari bilan ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortadi.[5,6] *Cynara scolymus* L. turkumi Qoqio'ldoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlikdir, uning 11 turi ma'lum, shu turlardan biri *Cynara scolymus* L. (tikanli artishok) dir. Artishok sabzavot ekini hisoblanib, uning yo'g'onlashgan gulo'rni ovqat sifatida ishlatiladi. Tangachasimon o'rama barglari etli, mazali va turli vitaminlarga boy bo'lganligi sababli pishirilib yoki xomligicha iste'mol qilinadi. Angliya, Fransiya, Ispaniya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida uning yangi o'sib chiqqan yosh barglari ovqatga ta'm beruvchi ziravor sifatida ishlatiladi. O'simlikning yosh savatchalari, shiralari, gullari, barglari, ildizlari va uning boshqa qismlaridan olingan suyuqliklar buyrak, qorin va ichak surunkali kasalliklari, xususan, ich qotishi, jigar patologiyalarida (sariq kasalligi, xolesistit va boshq.) siydik haydovchi vosita sifatida ishlatilgan. Uning shirasini asal bilan aralashtirilib, stomatit, bolalarning til oqarish, yorilish kasalliklarini davolashda foydalanishgan. *Cynara scolymus* L. ning barglarida fitokimyoviy moddalardan sinarin, sinaropikrin uchraydi. O'simlikning kimyoviy tarkibi yaxshi o'rganilgan bo'lib, tibbiyotda katta ahamiyatga ega. Barglarida kafeolxinin kislota, sinarin va lyuteolin moddalarini saqlaydi. Artishok barglari ekstrakti organizmdagi xolesterin miqdorini pasaytiradi hamda

jigarda o't suyuqligini ishlab chiqarilishini me'yorlashtiradi.[3,4] Shuningdek, Artishok tarkibida ko'p miqdorda tola, foliy kislotaga ega bo'lib, yog' miqdori pastligi bilan e'tiborga loyiq. 100 gramm Artishok tarkibidagi tola kunlik tolaga bo'lgan ehtiyojning uchdan bir qismini o'z ichiga oladi. Ushbu tolalar organizmda qabziyatni boshqarishda, ovqat hazmini yaxshilashda ishtirok etishi bilan birga, ichaklardagi xolesterol miqdorini kamaytirib, undan ajraladigan toksik birikmalarni zararsizlantirish orqali yo'g'on ichakda saraton xavfini oldini oladi. Shuningdek, o'simlik C vitaminiga ham boy bo'lib, 100 g artishok tarkibida kunlik qiymatning taxminan 20% miqdori mavjud. Muntazam ravishda ozuqa mahsulotlari tarkibida artishokni iste'mol qilish organizmning turli viruslarga va yuqumli kasalliklar nisbatan chidamliligini oshiradi. Shuningdek, o'simlik organizmdagi erkin radikallarning salbiy ta'siriga qarshi kurashish hususiyatiga ega kuchli antioksidant bo'lib, tanada o'sma paydo bo'lishini oldini olishda muhim sanaladi. Osteoporoz kabi kasalliklarning oldini olishda sog'lom suyaklar va bo'g'imlar uchun juda muhim bo'lgan K vitamini ham o'simlik tarkibida ko'p miqdorda uchraydi. K vitaminining kunlik rasiondagi yetarli dozasi miyadagi neyronlarning zararlanishini oldini olib, Alsgeymer kasalligiga uchragan bemorlarda ijobiy samara beradi. Shuningdek, o'simlik tarkibida silimarin, kofein va ferul kislotasi kabi antioksidantlarning miqdori yuqoriligi ham adabiyotlarda qayd etilgan.[1,2]

Xulosa qilib aytganda, o'simlikning dorivorlik xususiyalari keng ekanligini hisobga olib, uni yetishtirish texnologiyasini yangi usullarini ishlab chiqish va eksport qilish bilan birga, uni asrab- avaylash chora tadbirlarini ham ishlab chiqish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sobirova M. Determination of stimulant properties of local rhizobacteria-based bioproducts against *Cynara scolymus* L.//The American

Journal of Agriculture and Biomedical Engineering//. 2022. – 4 (02), p. 26-30.

2. Sobirova M., Murodova S. Effects of biopraparites on cynara scolymus L., micro and macroelements, and quantity of flavonoids // In E3S Web of Conferences//. 2021. Vol. 258.

3. Собирова М., Муродова С. Технология получения элиситора, эффективно влияющего на биологические свойства Cynara Scolymus L-M.: Научное обозрение. биологические науки, 2022. №1. с. 68-72

4. Mamatkulova I.E, Abduraimov O.S. O‘zbekiston florasidagi ayrim dorivor va ziravor turlarning ahamiyati. (Apiaceae Lindl.) “Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari to‘plami (2022 yil 12 aprel, Andijon)

5. Mustafakulov M.A. In Vitro sharoitida polifenollarning adrenalin autooksidlanish bilan antioksidantlak faolligini aniqlash. Farmatsevtika jurnali. Farmatsevtika jurnali, №2, 2020. 80-85.

6. Уралов А.И., Печеницын В.П. Зависимость семенной продуктивности луковичных видов Allium L. от количества листьев на генеративном побеге. Доклады АН РУз. 2015. 74-77